

DAVLAT QARZLARINI BOSHQARISHNING DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGIGA TA'SIRI

Choriyeva Zebiniso Abdukarimovna

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada iqtisodiyotni modernizatsiyalash va isloh etishning hozirgi bosqichida davlat qarzlarini boshqarish tizimi alohida o'rin egallaydi. Davlat moliyasi barqarorligining muhim omili – davlat qarzlarini samarali boshqarish yo'llari hisoblanadi, davlat qarzlarini boshqarish mamlakat moliya tizimining tarkibiy qismidir mamlakatda yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot birlamchi taqsimlangandan keyingi taqsimlanish jarayonini muvofiqlashtiruvchi asosiy soha bo'lib, takror ishlab chiqilab chiqarishni uzviy davomchisi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: davlat moliyasi, davlat ichki qarzi, mamlakat moliya tizimi, davlat tashqi qarzi, davlat byudjeti, moliya tizimi, davlat qarz majburiyati, suveren kredit.

Abstract. In this scientific article, the state debt management system occupies a special place at the current stage of economic modernization and reform. An important factor of the stability of public finances is the effective management of public debts, the management of public debts is a component of the country's financial system, it is the main area coordinating the distribution process after the primary distribution of the gross domestic product created in the country, and it is an integral continuation of reproduction.

Key words: state finance, state internal debt, state financial system, state external debt, state budget, financial system, state debt obligation, sovereign credit.

Kirish

Xalqaro mezonlarga ko'ra, hozirda O'zbekiston Respublikasining davlat qarzi "mo'tadil" darajada bo'lsada, O'zbekistonning suveren kredit reytinglari barqarorligini hamda davlat qarzining xavfsiz darajada bo'lishini kafolatli ta'minlash mexanizmlarini yaratish bugungi kun talabi bo'lmoqda. Bunda, davlat qarzining yillik limitlarini belgilash, davlat qarzi hisobidan moliyalashtiriladigan loyihalarni tanlab olishda ustuvor yo'nalishlarni belgilash, ularning amalga oshirilishini tizimli monitoring qilish va loyihalar natijalarini baholashning shaffof va samarali mexanizmlarini joriy etish ustuvor vazifa hisoblanadi.

Xalqaro andozalar asosida davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish, davlat qarzini makroiqtisodiy barqarorlik uchun xavfsiz darajada saqlab turish hamda jalb qilinayotgan qarzlardan samarali foydalanish mexanizmlarini ishlab chiqishni ta'minlash bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonlifarmonining 21-maqсадining amalga oshirish mexanizmiga muvofiq:

"...Xalqaro moliya institutlari bilan birgalikda kelgusi 5 yil uchun bir nechta ssenariyli makroiqtisodiy prognoz (makromodel)ni ishlab chiqish. Bunda:

–yalpi ichki mahsulotni 100 mlrd AQSh dollariga yetkazish va aholi daromadlarining yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash;

–tarkibiy islohotlarni amalga oshirishda iqtisodiyotga ta'sirini baholash; iqtisodiy o'sish uchun zarur bo'lgan energiya manbalari bilan ta'minlash; tashqi bozorlardagi o'zgarishlarni prognozlashtirish va iqtisodiy o'sishga tashqi omillar ta'sirini yumshatish;

–hududlar va tarmoqlarning iqtisodiy o'sishdagi hissasini aniqlash orqali "o'sish nuqtalari"ni belgilash;

–barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda tavsiyalar va asosiy makroiqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha aniq choralar ishlab chiqish"¹ kabi vazifalar belgilangan.

Tadqiqotda iqtisodchilarni hamisha qiziqtirib kelgan tashqi qarz va ichki qarz, ularning o'zaro aloqadorligi muammolari ko'rib o'tiladi, ayniqsa, Davlat tashqi qarzi mufassalroq yoritilgan. Buning sababi shuki, rivojlanayotgan mamlakatimizda tashqi qarz davlat qarzining salmoqli qismini tashkil etmoqda, qolgan mamlakatlarda esa tashqi qarz ichki moliya bozorining rivojlanishi darajasiga qarab o'zgarib boradi. Tadqiqotda ko'pgina mamlakatlarning tajribalariga tayangan holda, umuman, davlat qarzi haqida keng ma'lumotlar berilgan. Yuqorida bayon etilgan jihatlar maqolaning asosiy yo'nalishlarini belgilashda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Davlat qarzlariga oid iqtisodiy qarashlarning ilk tizimlashtirilishini Merkantalistik ta'limot va fiziokratlarga borib taqalishini ko'rishimiz mumkin.

Adam Smitning qarz masalasiga salbiy munosabati ham antimerkantistik filosofiyaga va davlat hamda xususiy xarajatlar samaradorligini qiyosiy baholashga asoslanadi. Adam Smitning davlat boyliklarni yaratuvchi va shaxslar erkinligi kafolati sifatida samarasiz faoliyat olib boradi, deb hisoblagan. Davlat sanoat va savdodan jamg'armalarni olib qo'yadi, bu esa mansabdorlarga "aysh-ishratli hayot"ni yaratib beradi. Milliy daromad investitsiyalardan iste'molga o'tkaziladi. Agar xalq boyligini isrof qiluvchi davlatning byudjet defitsitini sanoatchilar va savdogarlardan oladigan qarzi hisobiga qoplashga yo'l qo'yiladigan bo'lsa, kapitali kam bo'lgan jamoat daromadlardan mahrum bo'ladi, chunki bu mablag'lar unumli investitsiyalardan chiqib ketadi. Davlat uquvsiz menejer. Davlat xususiy qarz oluvchilardan farq qilgan holda "kapitalning biron-bir maxsus qismini to'g'ri boshqarishdan manfaatdor emas"

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-sonli farmoni

Shu sababli davlatga qarz bermaslik lozim. Qarzga salbiy munosabatda bo'lgan Adam Smit muvozanatlangan byudjet talabini ilgari suradi. A.Smitning fikrga ko'ra, qarz keltiradigan asosiy jafo – o'zi paydo bo'layotgan davrda kapitalni parchalashdir, ya'ni davlat tomonidan milliy ishlab chiqarishdan olib qo'yiladigan resurslarning boy berilishidir. A.Smitning davlat qimmatli qog'ozlari xaridorlari xarid paytida hech narsa yo'qotmaydilar degan fikri ham g'oyat e'tiborga molik.

“Ular pulni hukumatga qarzga berib, savdo va ishlab chiqarish bilan shug'ullanish qobiliyatlarini bir on bo'lsa ham yo'qotmaydilar, aksincha o'z mashg'ulotlarini kuchaytiradilar. Savdogar yoki kreditor hukumatga pulni qarzga berib, puldan pul chiqaradi va bu bilan o'z savdo kapitalini kamaytirmaydi, balki ko'paytiradi”². Bu fikrlar ixtiyoriy ayirboshlashning o'zaro manfaatli ekanligini e'tirof etish bilan birga qarz yuki tevaragidagi keyingi munoazaralarni baholashda g'oyat muhim.

David Rikardo umuman olganda A.Smitning qarzga bo'lgan salbiy munosabatiga qo'shiladi va qarzni “eng fojeali ofatlardan biri” deb ataydi. Ammo, “mamlakatni aslo milliy qarz bo'yicha foizlar to'lovi xarob qilmaydi va bu to'lovni bekor qilish mamlakatga yangilik keltirmaydi. Faqat daromadlarni jamg'arib va xarajatlardan tiyilibgina milliy kapitalni ko'paytirish mumkin. Qarzni yo'qotish bilan daromadlar ko'payib qolmaydi va xarajatlar qisqarib qolmaydi”³. Rikarda foiz chiqimlari ichki transfertlar bo'lgani sababli kelajak avlodga yuk bo'lmaydi degan merkantilistcha g'oyaga qo'shiladi.

Tomas Robert Maltus bunday qarashlarga qo'shilmaydi. U klassik iqtisodiyotning taklif ta'sirida o'z-o'zidan sozlanishiga ishonmaydi va asosiy asari bo'lgan “Nufus qonuni to'g'risida tajribalar” (1798)da undan bir asr keyin yashagan Jon Meynard Keynes kabi talab taqchilligidan cho'chidi. U qarz orqali mablag' bilan ta'minlashni talabni oshirish usullaridan biri deb qaraydi. Foizlar hisobiga yashaydiganlar, deb yozadi u “taqsimot va talabga katta hissa qo'shadilar... Ular ishlab chiqarishga zarur rag'bat beradigan samarali iste'molni ta'minlaydilar”⁴. Maltus qarzining yaratuvchilik rolini alohida ta'kidlaydi.

Rosdiana Sijabat Indoneziya iqtisodiyotiga davlat qarzlarning ta'sirini o'rgangan. Tahlilda 1998-2018 yillardagi statistik ma'lumotlar asosida VECM modelini qurgan. Tahlil natijalariga ko'ra Indoneziya davlatining tashqi qarzlari iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir qilgan bo'lsa, davlatning ichki qarzlari aksincha ijobiy ta'sir qilgan. Shuningdek, aholining tashqi qarzlari ham iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri ko'rilgan⁵.

² Smith Adam. An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations, 1776, Book Five, Charter I, <http://www.smith/weulbk05>

³ Ricardo, David. On the Principles of Political Economy and Taxation. John Murray. 1821. Library of Economics and Liberty, p. 246.

⁴ Malthus, Tomas Robert. An Essay on the Principle of Population John Murray. 1826. Library of Economics and Liberty, http://www.econlib.org/libray/Malthus/malPlong_1

⁵ Sijabat, R. (2020). Disentangling the Association between Government Debt and Economic Growth: A Granger Causality Approach from Indonesia. Jurnal Studi Pemerintahan, 11(1), 1-23.


P. Zondi va Z. Robinson Janubiy Afrika davlati misolida 1994-2019 yillar statistik ma'lumotlari asosida avtoregressiv taqsimlangan kechikish modeli (autoregressive distributed lag model) yordamida davlat tashqi qarzining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholagan. Tahlil natijalariga ko'ra davlat tashqi qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri qisqa muddatda ijobiy bo'lgan. Ammo uzoq muddatda davlat tashqi qarzlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri salbiy bo'lgan⁶. Yuqoridagi olimlarning fikrlari va tahlillaridan ko'rishimiz mumkinki, davlat qarzining iqtisodiy o'sishga ta'siri birinchidan, uning hajmiga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan uning manbasiga bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi

Ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda induksiya, deduksiya, sintez, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanilgan. Davlat qarzlarini boshqarishning davlat moliyasi barqarorligiga ta'siri etuvchi omillarni baholashda ekonometrik modellardan foydalanilgan. Empirik tahlillar, davlat qarzini diversifikatsiyalash hamda valyuta xatarlarini kamaytirish maqsadida statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Har bir mamlakatda davlat byudjetini boshqarishda davlat tashqi qarzi hamda uni boshqarish masalasi muhim sanaladi.




Davlat qarzini boshqarishning asosiy prinsiplari⁷

Davlat qarzini boshqarishning asosiy prinsiplari davlat qarzini boshqarish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llanilsagina ijobiy natijalar berishi mumkinligini ham esdan chiqarmasligimiz lozim. Yana bir muhim masalardan biri shuki, davlat qarzini samarali boshqarish turli davlatlarda turli vakolatli organlarga beriladi. O'zbekiston Respublikasida Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat qarzini boshqarish sohasida yagona vakolatli organdir.

⁶ Zondi, P., & Robinson, Z. (2021). The relationship between government debt and economic growth in South Africa with specific reference to Eskom. *EuroEconomica*, 40(2).

⁷ O'rganishlar natijasida muallif tomonidan tayyorlandi.

Suveren obligatsiyalar, agar ular xalqaro bozorda chiqarilgan va xorijiy investorlar tomonidan sotib olingan bo‘lsa, davlat tashqi qarzining bir qismi hisoblanadi. Suveren obligatsiyalar - bu davlat hukumati tomonidan byudjetni, infratuzilma loyihalarini, ijtimoiy dasturlarni va hokazolarni moliyalashtirish kabi turli maqsadlar uchun moliyalashtirishni jalb qilish uchun chiqarilgan qarz qimmatli qog‘ozlari.



O‘zbekiston Respublikasi suveren obligatsiyalarining nominal qiymatiga nisbatan narxlari⁸

O‘zbekiston Respublikasi tomonidan suveren xalqaro obligatsiyalarini, ayniqsa milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalarini xalqaro moliya bozorlarida joylashtirilishi mamlakat uchun strategik ahamiyatga ega.

Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston Respublikasining suveren xalqaro obligatsiyalari jahon moliya bozorlarida katta qiziqish bilan kutib olingan va narxlari ham nominaliga nisbatan yuqoriroq bo‘lganligini kuzatishimiz mumkin. Biroq, koronavirus pandemiyasi va global inqiroz sharoitida eng xavfsiz hisoblangan aktivlar narxida ham jiddiy qulashlar sodir bo‘ldi, shu jumladan koronavirus tarqalishi eng yuqoriga chiqqan paytda, iqtisodiy faollik ongli ravishda pasaygan paytda suveren yevrobondlarimiz narxi ham keskin qulaganini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, O‘zbekiston Respublikasining suveren xalqaro obligatsiyalarining, ayniqsa, milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalarning xalqaro moliya bozoriga joylashtirilishi bir necha maqsadlarga erishishga xizmat qiladi:

- mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini xalqaro investorlarga namoyon eta olish hamda xorijiy investorlar uchun respublikamizga investitsiya kiritishda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan suveren riskini to‘g‘ri baholash imkoniyatini yaratish;
- suveren xalqaro obligatsiyalarning ikkilamchi bozordagi katirovkasi barqaror iqtisodiy yuritish barometri vazifasini yaratish;

⁸ “Bloomberg” terminali ma’lumotlari asosida tayyorlandi.

- respublikaning tijorat banklari va tashkilotlari uchun “benchmark” bo‘lish, hamda ularning yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirilishiga va tadbirkorlikni rivojlantirilishiga imkon yaratish;

- tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;

- suveren xalqaro obligatsiyalarning ikkilamchi bozordagi katirovkasi barqaror iqtisodiy siyosat yuritish barometri vazifasi yaratish.

Ko‘rib turganimizdek, davlat korxonalari va banklari tomonidan xalqaro me‘yorlar va talablar asosida o‘z moliyaviy hisobotlarining shaffofligini ta‘minlash, “Fitch”, “S&P” va “Moody’s” xalqaro reyting agentliklari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan holda xalqaro kredit reytingini olinishi natijasida 2019-2021-yillarda “O‘zsanoatqurilishbank” ATB, “Milliy bank” AJ, “Ipotekabank” ATIB, “UzAutoMotors” AJ va “O‘zNeftgaz” AJ tomonidan umumiy hajmi qariyb 2 mlrd. AQSH dollarlik mablag‘lar xalqaro obligatsiyalar chiqarish orqali jahon bozorida jalb qilindi. Xorijiy tajribadan ko‘rinib turibdiki, qarzlarni maqroiqtisodiy darajada xavfsiz darajada saqlab turish muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat korxonalari va banklari tomonidan moliya bozorlarda joylashtirilgan korporativ xalqaro obligatsiyalar to‘g‘risida ma’lumot⁹

№	Emitent	Miqdori	Muddati	Kupon foizi	Joylashtirish sanasi
1	“Uzsanoatqurilishbank” ATB	300 mln. AQSH doll.	5 yil	5,75%	02.12.2019
2	“Milliy bank” AJ	300 mln. AQSH doll.	5 yil	4,85%	14.10.2020
3	“Ipoteka bank” ATIB	300 mln. AQSH doll.	5 yil	5,50%	19.11.2020
		785 mlrd. so‘m (~75 mln. AQSH doll)	3 yil	16,00%	16.04.2021
4	“UzAuto Motors” AJ	300 mln. AQSH doll.	5 yil	4,85%	04.05.2021
5	“UzNeftgaz” AJ	700 mln. AQSH doll.	7 yil	4,75%	16.11.2021

Shu o‘rinda alohida ta’kidlash joizki, mamlakatimizda yetarli darajada fiskal zaxiralar mavjudligi va makroiqtisodiy barqarorlik ta‘minlanayotgan bir vaqtda suveren xalqaro obligatsiyalarini chiqarishda qo‘shimcha mablag‘larga ehtiyoj yoki byudjet defitsitini qoplash emas, balki quyidagi strategik maqsadlar belgilangan:

- mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini xalqaro investorlarga batafsil namoyish etish;

- O‘zbekiston Respublikasi uchun bozorda “benchmark” yaratib, investitsiya loyihalarini mustaqil ravishda moliyalashtirishga o‘tkazish.

⁹ O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti ma’lumotlari asosida tayyorlandi//manba:www.mf.uz

Shu o‘rinda mamlakatda davlat tashqi qarzini boshqarish hamda baholash muhim masalalardan biri hisoblanib, bir necha ko‘rsatkichlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiqdir.

Davlat qarzi hajmini baholash ko‘rsatkichlari majmui

Ta‘minlanganlik manbasi	Ichki qarz	Tashqi qarz
So‘ndirish	Yalpi ichki mahsulot	
	Monetizatsiya darajasi	Oltin-valyuta zahiralari
Xizmat ko‘rsatish		Eksport (tovar, xizmat)
	Byudjet daromadlari	
	Yalpi ichki mahsulot	

Shu bilan birgalikda, T.Chekushina davlat qarzlarini boshqarish va baholashda beshta ko‘rsatkichni keltirib, ulardan turli darajada foydalanishni tavsiya etadi. Jumaladan, YaIM, davlat byudjeti daromadlari, eksport hajmi, davlatning oltin valyuta zaxiralari va monetizatsiya koeffitsienti kabi ko‘rsatkichlarni ta‘kidlab o‘tadi¹⁰.

Ushbu olim tomonidan shartli ravishda chegara sifatida tashqi qarzning xavfli ulushi YaIMda 50 foiz, qarzga xizmat ko‘rsatish va so‘ndirish, foiz to‘lovlari bo‘yicha ulush mos ravishda eksportga nisbatan 30 foiz, 20 foizdan oshmasligi tavsiya etilgan.

O‘zbekiston sharoitida monetizatsiya koeffitsienti va oltin-valyuta zaxiralarining to‘liq statistikasini topishning imkoni bo‘lmaganligi sababli tavsiya etilgan uchta makroiqtisodiy ko‘rsatkich bo‘yicha tahlillarni amalga oshirishga harakat qildik.

O‘zbekiston davlat tashqi qarzining makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi, foizda¹¹

Ko‘rsatkich nomi	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023*
Asosiy qoldiq bo‘yicha							
YaIMdagi ulushi	20,1	20,6	27,2	35,2	34,1	32,3	31,6*
Eksportdagi ulushi	75,2	88,5	118	66,9	70,3	73,9	-
Davlat daromadidagi ulushi	125	105	134	55,5	63,1	68,1	96,8*
Asosiy qarzni to‘lash bo‘yicha							
YaIMdagi ulushi	0,9	0,8	0,6	0,8	0,9	1	-
Eksportdagi ulushi	3,4	3,3	2,6	3,02	3,9	4,2	-
Davlat daromadidagi ulushi	5,6	3,9	3,0	3,6	4,4	4,6	-
Foizlarni to‘lash bo‘yicha							

¹⁰ Чекушина Т.В. Методология и оценка состояния государственных долгов// Вестник Руди. Сер. Инженерные исследования, 2006. -N°1 (12). - с. -148-158. Онлайн источник:

<https://cyberleninka.ru/article/n/metodologiya-1-otsenka-sostoyaniya-gosudarstvennyh-dolgov/viewer>

¹¹ jadval ma‘lumotlari Jahon banki, O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi(YaIM), O‘zbekiston Respublikasi “Ochiq byudjet” portali, Markaziy banki (valyuta kursi, to‘lov balansi) va Moliya vazirligi (davlat byudjeti) ma‘lumotlaridan foydalanib, muallif tomonidan hisoblandi.

YaIMdagi ulushi	0,3	0,3	0,09	0,5	0,4	0,5	-
Eksportdagi ulushi	1,1	1,2	0,4	2	1,9	2	-
Davlat daromadidagi ulushi	1,9	1,5	0,4	2,5	2,2	2,2	-

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan nisbatlar davlat qarzining makroiqtisodiy ko'rsatkichlardagi ulushini anglatadi. Tadqiqotimiz davomida quyidagi xulosalarni oldik:

- davlat tashqi qarzining asosiy qoldiqlarining eksportdagi ulushi ham barqaror ekanligini kuzatishimiz mumkin;

- tashqi qarz YaIMga nisbatan barqaror degan xulosaga kelishimizga asos bor, jumladan, so'nggi yetti yildagi (2017-2023-yillar) ko'rsatkichlarida tashqi qarz ko'rsatkichlari YaIM ga nisbatan xavfsiz chegaradan oshmagan;

- davlat qarzini qaytarishda byudjet daromadlariga nisbatan ulush 2017-yil keskin ko'tarilishi aks ettirgan. Keying yillarda esa byudjet daromadlari oshishi natijasida ushbu qiymat tushgan;

- davlat tashqi qarzi foizlarini to'lashda eksportning o'rni muhimligi ma'lum, ushbu ulush 2 foiz atrofida bo'lmoqda;

- umuman olganda, 2017-yildan to bugungi kunga qadar davlat tashqi ning barcha ko'rsatkichlari nisbati ortgan. Bu esa davlat tashqi qarzidan so'nggi yillarda keng foydalanilayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining suveren xalqaro obligatsiyalarining, ayniqsa, milliy valyutadagi suveren xalqaro obligatsiyalarning xalqaro moliya bozoriga joylashtirilishi bir necha maqsadlarga erishishga xizmat qiladi:

- mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini xalqaro investorlarga namoyon eta olish hamda xorijiy investorlar uchun respublikamizga investitsiya kiritishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan suveren riskini to'g'ri baholash imkoniyatini yaratish;

- respublikaning tijorat banklari va tashkilotlari uchun "benchmark" bo'lish, hamda ularning yirik investitsion loyihalarni moliyalashtirilishiga va tadbirkorlikni rivojlantirilishiga imkon yaratish;

- tashqi moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish;

- suveren xalqaro obligatsiyalarning ikkilamchi bozordagi katirovkasi barqaror iqtisodiy siyosat yuritish barometri vazifasi yaratish.

Shu o'rinda mamlakatda davlat tashqi qarzini boshqarish hamda baholash muhim masalalardan biri hisoblanib, bir necha makroiqtisodiy ko'rsatkichlardan foydalanishimiz maqsadga muvofiq bo'lib, bugungi kunda ular mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegarada degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida davlat tashqi qarzi umuman davlat qarzi holati turli xalqaro reyting agentliklari tomonidan barqaror holatda ekanligi

baholanib kelinayotgan bo'lsa-da, uning dinamik ko'rsatkichlari yildan yilga o'sib borayotgani hisobga olinib, mamlakat iqtisodiyoti uchun xavfsiz chegaradan (mamlakat yalpi ichki mahsulotiga nisbatan 60 foiz) o'tib ketmasligini ta'minlash muhim masalalardan hisoblanadi. Ammo, davlat tashqi qarzini qaytarish bilan bog'liq istiqboldagi murakkabliklarni bir necha holatlar bilan bog'lashimiz mumkin bo'ladi:

- so'nggi yillarda mamlakatimizda YaIMga nisbatan davlat daromadlari (soliq yuki) pasayish tendensiyasiga ega bo'lmoqda;
- tashqi qarzda davlatning ulushi yuqori darajada bo'lib kelayotgani;
- savdo balansi salbiy qoldig'i bilan tashqi qarz oshishi parallel ravishda yuzaga kelmoqda.

Olib borilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

Davlat tashqi qarzini boshqarish tizimining oqilona olib borilishi natijasida qarzning moliyaviy yukini teng taqsimlashga yoki iqtisodiy adolatga erishish mumkin;

Davlat tashqi qarzining mamlakat iqtisodiyotiga ma'lum davlat dasturi va ijtimoiy vazifalarni bajarish uchun jalb etilishi joriy iste'molni ta'minlashi hamda kelajakda iqtisodiy o'sishga sharoit yaratib berishi mumkin. shu sababli ham davlat tashqi qarzini jalb etish mamlakat iqtisodiyoti uchun to'liq xavf deb qarash zamonaviy iqtisodiyotning bir bo'laki bo'la olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ387-son yangi tahrirdagi qonuni.
2. "O'zbekiston Respublikasining Markaziy bank to'g'risida" O'RQ-582-son yangi tahrirdagi qonuni.
3. Pegkas P. (2018). The effect of government debt and other determinants on economic growth: The Greek experience. *Economies*, 6(1), 10.
4. Ataniyazov J.X. Xalqaro moliya munosabatlari. Darslik.– T.: "Iqtisod-moliya", 2020-y. 612-b.
5. Jumaniyazov, I. T., & Islomov, A. (2023). O'RTA MUDDATLI DAVR UCHUN FISKAL STRATEGIYANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI. *PEDAGOGS jurnali*, 35(4), 121-127.
6. Shernayev A.A., Komolov O.S.. Davlat qarzlarini boshqarish. Darslik. – T.: "Iqtisod-moliya" 2019-y. 308-b.
7. Malikov T.S., Vahobov D.R. Moliya. O'quv qo'llanma. T.: "Iqtisod-moliya", 2012-y. 660-b.
8. Jumaniyazov, I., & Vohidova, R. (2023). Davlat byudjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari. *Science and Education*, 4(6), 881–887. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6100>
9. Alekseyevna K.L., Sergeevich B.A. Iqtisodiyot, moliya-kredit munosabatlarining rivojlanishining hozirgi zamon muammolari. Darslik. - NIU"BelGU", 2021-y. 130-b.
10. Jumaniyazov, I., & To'laganova, F. (2023). Aksiyadorlik jamiyatlarining korporativ moliya strategiyasini rivojlantirishda xorij tajribasi. *Science and Education*, 4(6), 836–847. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6095>

11. Sijabat, R. (2020). Disentangling the Association between Government Debt and Economic Growth: A Granger Causality Approach from Indonesia. *Jurnal Studi Pemerintahan*, 11(1), 1-23.
12. Jumaniyazov, I. T. (2019). The impact of Uzbekistan Reconstruction and development fund's expenditure on GDP growth. *Science, research, development*, 16.
13. Zondi, P., & Robinson, Z. (2021). The relationship between government debt and economic growth in South Africa with specific reference to Eskom. *EuroEconomica*, 40(2).
14. Jumaniyazov, I., & Qayumova, M. (2023). Fuqarolik ishtirokidagi "Tashabbusli byudjet" turlari va uni O'zbekistonda qo'llash dolzarbligi. *Science and Education*, 4(6), 853–859. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6101>
15. Жуманиязов, И. Т., & Садыкова, Н. О. (2023). Ўзбекистонда ва жахонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. *Science and Education*, 4(6), 915–920. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/6106>
16. I.T.Jumaniyazov, & I.A.Mingboyev (2023). Gender budgeting and prospects for its implementation in Uzbekistan. *Science and Education*, 4 (5), 1518-1523.
17. Jia, X., Cui, Y., Patro, R., Venkatachalam, S., Kanday, R. & Turayevich, J. (2023). Application of fractional-order nonlinear equations in coordinated control of multi-agent systems. *Nonlinear Engineering*, 12(1), 20220335. <https://doi.org/10.1515/nleng-2022-0335>
18. Abdullaev Aybek Nazarbaevich, Jumaniyazov Inomjon To'raevich, Sabirov Mirza Qilichbayevich, & Gulomov Ibrokhim Rustam ugli. (2024). Development Of China's Sovereign Wealth Funds. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(1), 1–8. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/7/article/view/479>
19. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 1(2), 355-372. <https://euroasianjournals.org/index.php/pc/article/view/73>
20. Mirza Qilichbayevich Sabirov, Ibrokhim Rustam ugli Gulomov, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, & Aybek Nazarbaevich Abdullaev. (2023). Relevance and Application of Compulsory Health Insurance in Republic of Uzbekistan. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(11), 71–76. Retrieved from <http://journals.academiczone.net/index.php/jiphr/article/view/1477>
21. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Shavkat Bayramovich Babaev, Mirza Qilichbayevich Sabirov, & Inomjon To'raevich Jumaniyazov. (2024). TAX RELATIONS IN BUSINESS ENTITIES PROVIDING NON-STATE EDUCATIONAL SERVICES. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 25, 123–134. Retrieved from <http://www.ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/969>
22. Aybek Nazarbaevich Abdullaev, Inomjon To'raevich Jumaniyazov, Shavkat Bayramovich Babaev, & Mirza Qilichbayevich Sabirov. (2024). PROSPECTS OF ORGANIZING RENTAL OPERATIONS IN NON-GOVERNMENT EDUCATIONAL ORGANIZATIONS ON THE BASIS OF INTERNATIONAL STANDARDS OF FINANCIAL REPORTING. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(2), 104–114. Retrieved from <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/5204>